

AYOLLAR PALTOSI MODASI VA NARX STRATEGIYASI INTEGRATSIYASINING ISTE'MOL XAJMIGA TA'SIRI

Usmanova Sohiba Sokibayevna

Jizzax Politexnika Instituti Iqtisodiyot va menejment kafedrası o'qituvchisi

Ergasheva Sarvinov Islom qizi

JizPi Sanoat texnologiyalari fakulteti

IV bosqich talabasi

gergasheva757@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18401535>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ste'mol iqtisodiyoti, iste'molchilarning xatti-harakati, talab va taklif qonunlari, narxlar o'zgarishining xarid qobiliyatiga ta'siri bilan shug'ullanadigan sohlar hamda narx o'zgarishi (oshishi yoki pasayishi) iste'molchilarning tanloviga, savat tarkibiga va umumiy farovonligiga bevosita ta'sir qilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'z. Palto, ranglar, brend identiteti, bozor, ishchilar

Аннотация. В данной статье рассматриваются экономика потребления, области, изучающие поведение потребителей, законы спроса и предложения, влияние изменений цен на покупательную способность, а также то, как изменения цен (повышение или снижение) напрямую влияют на выбор потребителя, состав потребительской корзины и общее благосостояние.

Ключевые слова. Пальто, цвета, фирменный стиль, рынок, сотрудники

Abstract. This article discusses consumer economics, consumer behavior, the laws of supply and demand, the fields that deal with the impact of price changes on purchasing power, and how price changes (increases or decreases) directly affect consumer choice, basket composition, and overall well-being.

Keywords. Coat, colors, brand identity, market, workers

Ayollar paltosi sovuq va shamoldan himoya qilish uchun mo'ljallangan tashqi kiyim hisoblanadi. U tizzagacha yoki pastroq bo'lib, odatda tugma yoki molniya tasma bilan yopiladi. Ayollar paltosi turli xil materiallardan, masalan, jun, drap va boshqa matolardan tayyorlanishi mumkin. U turli xil uslublarga ega bo'lishi mumkin[1]. Palto, shuningdek, kamar, cho'ntaklar yoki yoqalar kabi turli detallar bilan bezatilgan bo'lishi mumkin. Palto nafaqat funksional kiyim, balki sovuq mavsumda zamonaviy qiyofa yaratishda yordam beradigan moda aksessuaridir. Ayollar paltosi modasi va narxining o'zgarishi iste'mol iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi[2]. Yangi modalar talabni oshiradi, narxlar esa xaridor qobiliyati, ishlab chiqarish xarajatlari va bozor raqobati (oligopolya) bilan shakllanadi, bu esa iste'molchi xarajatlariga (iste'moliga) bevosita ta'sir qiladi. Bu jarayon pulning qadrini (inflyatsiya) o'zgartiradi va iqtisodiy faollikni belgilaydi[3]. Zamonaviy ayollar paltosi murakkab va xilma-xildir. U insonlarning iste'moli talabini, hamda ommaviy ishlab chiqarish ob'ekti bo'lib, u texnik va iqtisodiy xususiyatlarini aniqlaydigan ko'plab talablarga javob berishi kerak. Ishlab chiqarilgan palto estetik ko'rinishi chiroyli ham qulay bo'lishi kerak. Palto kundalik foydalanish uchun mo'ljallangan, ishqalanishga chidamli, suv o'tkazmaydigan va odamlarda allergiyaga olib kelmasligi kerak[4].

Narx shakllanishi – tovarlar va xizmatlarga belgilangan narxning bir qator omillar ta'sirida yuzaga kelishi jarayoni. Umumiy ma'noda — Narx shakllanishiga davlat organlari

(soliq, kredit va iqtisodiy siyosatning boshqa ko'rinishlari orqali) hamda iqtisodiy fa-oliyat sub'yektlarining o'zlari ta'sir ko'rsatadi. Narx oshishi (inflyatsiya) aholi xarid qobiliyatini pasaytiradi, tovarlarga bo'lgan talabni o'zgartiradi, tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, iqtisodiyotdagi nobarqarorlikni kuchaytiradi va ayniqsa, asosiy resurslar narxining o'zgarishi barcha narxlarga ta'sir qilib, umumiy iqtisodiy vaziyatni yomonlashtiradi, bu esa jamiyatdagi narx kutilmalarining oshishiga olib keladi. Narx pasayishi talabning o'zgarishiga ta'sir qiladi, bu ta'sirning darajasi elastiklik bilan o'lchanadi: agar narx pasayishi talabni katta miqdorda oshirsa (elastik), narxga bog'liq talab elastik bo'ladi; agar talab kam o'zgarsa (inelastik). Asosiy omillar: elastiklik darajasi, o'rinbosar tovarlar mavjudligi, tovarning zaruriy yoki luks bo'lishi, iste'molchining daromadi va vaqt o'tishi[5]. Narx pasayishi talabning o'zgarishiga ta'sir qiladi, bu ta'sirning darajasi elastiklik bilan o'lchanadi: agar narx pasayishi talabni katta miqdorda oshirsa (elastik), narxga bog'liq talab elastik bo'ladi; agar talab kam o'zgarsa (inelastik). Asosiy omillar: elastiklik darajasi, o'rinbosar tovarlar mavjudligi, tovarning zaruriy yoki luks bo'lishi, iste'molchining daromadi va vaqt o'tishi[6].

Talabning narxga bog'liq elastikligi: Narxning 1% o'zgarishiga talabning necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi.

Elastik talab: Narx pasayganda talab juda katta miqdorda (masalan, 10% narx pasayishi 20% talab o'sishiga olib kelishi) o'zgaradi. Bu ko'pincha zaruriy bo'lmagan tovarlarga xos.

Talab va taklif. Bozorning eng asosiy qonuni bo'lib, narxlar talab (xaridorlar xohishi) va taklif (sotuvchilar taklif etayotgan miqdor) o'rtasidagi muvozanatdan kelib chiqadi. Talab qonuni (talab va taklif) bozor iqtisodiyotining asosiy qonuni bo'lib, u narxlar va tovarlar miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi, ya'ni, boshqa omillar o'zgarmasa, tovar narxi tushsa talab miqdori ortadi, narx ko'tarilsa talab miqdori kamayadi, va bu jarayon bozor muvozanatini ta'minlaydi.

Bu qonun A. Marshall tomonidan nazariy jihatdan asoslangan va bozor uvozanatiga erishish uchun talab va taklifning bir-biriga mos kelishini ta'kidlaydi[7]. Bozor ta'siri deganda, bozorda narx, talab va taklif orqali iqtisodiy munosabatlar, iste'molchilar xulq-atvori va ishlab chiqarishning shakllanishiga qaratilgan ta'sir kabi tushunchalar nazarda tutuladi, bu yerda xaridor va sotuvchilarning o'zaro munosabati orqali tovar va xizmatlar narxining ob'ektiv shakllanishi, shuningdek, ularning doimiy ravishda o'zgarib turishi tushuniladi. Iste'molchilar daromadining o'zgarishi to'g'ridan-to'g'ri talabga ta'sir qiladi. [8].

Xulosa:

Ayollar paltosi narxining o'zgarishi iste'mol hajmiga ta'sir qilishi talab qonuni va elastiklik prinsipini ko'rsatadi: narx yuqorilasa talab kamayadi, pasaysa ortadi; bu narx o'zgarishining iste'mol savatiga ta'sirini, subsidiyalar kabi davlat aralashuvini zarur qilib, iste'molchilarga narxlarni kuzatish va chegirmalardan foydalanishni tavsiya etadi. Ayollar paltosi narxi oshganda xaridorlar kamroq sotib olishi, narx tushganda esa ko'proq sotib olishi bu qonunni tasdiqlaydi. Bu talabning narxga nisbatan salbiy bog'liqligidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Komilova. X.X. "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". T.: -2003 y
2. S.U.Polatova Kiyim konstruksiyalash T. 2006
3. Abdullaeva Q.M., Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari. T.: 2006
4. Jabborova M.Sh. «Tikuvchilik texnologiyasi» T. 1989

5. Akmaljon Ibroximovich Sotvoldiyev, Nodir G'iyosaliyevich Xidirov. Dinamik modellarni iqtisodiyotda qo'llanishi // Science and Education. — 2022. — №
6. “Nathaniel Hendren, The policy elasticity. NATIONAL BUREAU OF ECONOMIC RESEARCH, 2013.”
7. Sotvoldiyev A.I. Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi haqida // Journal of New Century Innovations. 2023. Vol. 34, Issue 1. pp. 102-105.
8. “Innovations in Science and Technologies” илмий-электрон журналы ISSN: 3030-3451. 2 / 2025 йил.